

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Salomova Farangiz Laziz qizi

Shaxrisabz davlat pedagogika intituti
san'atshunoslik kafedrası uqituvchisi.

Annotasiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida tasviriy san'ni rivojlantirish bola rivolanishida katta ta'iri borligi, tasavvur doirasini kengayishiga ranglarni kura olish va aqliy salohiyatiga tasirini atroflicha yoritiladi.

Kalit so'zlar. Integratsiyalashgan, global, intellekt, erta ta'lim, Mortsart.

Zamonaviy hayot sharoiti, uning sur'ati va axborot boyligi insonga yuqori talablarni qo'yadi. Yangi ming yillikning odamlari global madaniy jarayonga ko'proq integratsiyalashgan, ular o'zlarini to'laqonli yagona tizmning bir qismi sifatida his qilmoqdalar. Ammo shu bilan birga, odamlarning ma'naviy-ruhiy rivojlanishi, madaniy-intellektual salohiyati darajasining pasayishi kuzatilmoqda.

So'nggi paytlarda pedagogik, psixologik, shuningdek, amaliyotchi o'qituvchilarning vakillari maktabgacha yoshdagi bolalarni san'at olamiga qo'llash zarurligiga jiddiy e'tibor berishdi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni idrok etish, tushunish va hissiy munosabatda bo'lish va san'at asarlarini yaratish uchun katta salohiyatga ega ekanligi isbotlangan. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy mentalitetning o'ziga xosligini ifodalovchi, atrofimizdagi butun dunyoni: tabiatni, ijtimoiy hayotni, insonning ichki dunyosini va boshqalarni aks ettiruvchi san'at asarlari ma'naviy hayotning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Uning intellekti va his-tuyg'ularini, ehtiyojlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.[1]

Qadim zamonlardan buyon noyob qobiliyat eng avvalo, irsiy, tabiat in'omi deb hisoblanadi. Bizga: "Mortsart uch yoshidan pianino chalgan" yoki "Jon Styuart Mill lotin tilidagi mumtoz adabiotlarni ham aynan shu yoshda o'qigan",- desalar, ko'pchiligimiz oddiygina: "Albatta, axir ular daho-ku", deb qo'yami holos.

Ammo Mortsart va Millning go'daklik chog'idagi hayoti borasida olib borilgan chuqur tahlillardan ma'lum bo'lishicha, ularning otalari o'z farzandlarini buyuk shaxs sifatida kamol topishi uchun natijali tarbiya usullaridan foydalanganlar. [2]

Bir qancha misollarini xisobga olgan xolda yangi tug'ilgan chaqaloqqa ta'lim-tarbiya va atrof muhitning qanchalik kuchli ta'sir qilishi borasida ko'roq fikr yurutish kerak. Odatda, biz bolalar haqida barcha narsalarni bilamiz deb o'ylaymiz. Aslida, ularning haqiqiy imkoniyatlari haqida juda kam tasavvurga egamiz. Biz uch yoshdan

katta bolalarga nimalarni o'rgatish masalasiga ko'proq e'tibor beramiz. Ammo, zamonaviy tadqiqotlarga ko'ra bu yoshgacha bosh miyya hujayralarining 70-80 foizi rivojlanib bo'ladi. Bu shuni anglatadiki biz bola tarbiyasiga ancha sust harakat qilyapmiz degani.

Erta ta'lim berish deganda chaqaloqlarni har xil raqamlar va qiyin atamalar bilan uqishni majburlash degani emas albatta. Bolani yo'naltirish, fang abo'lgan qiziqishini oshirish degani. Bunda bizga kumaklashadigan asosiy vositachi ona hisoblanadi. Chunki onalar bolaning his tuyg'ularini juda ham yaxshi tushunadilar, va ulardagi tarbiya berish vaqitini aniq biladilar. Baizlar ta'lim deganda o'qib o'rganadigan intizomli holat deb o'ylaydilar. Maktabgacha ta'lim tizimi intizomli ta'limga tayyorlov hisoblanadi. Erta bolalik ta'limi - tug'ilishdan sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarga qaratilgan ta'lim dasturlari va strategiyalariga taalluqli atama. Bu vaqt oralig'i inson hayotining eng nozik va muhim bosqichi sifatida keng tarqalgan. Erta bolalik ta'limi ko'pincha tadqiqot va falsafaga asoslangan holda o'yin orqali o'rganishga qaratilgan Jan Piaget Bu o'yin bolalarning jismoniy, intellektual, til, hissiy va ijtimoiy ehtiyojlarini (PILES) qondiradi. Bolalarning qiziqishi va tasavvurlari, tabiiyki, cheklovsiz o'rganishni uyg'otadi. O'yin orqali o'rganish bolaning kognitiv rivojlanishiga imkon beradi. Bu bolalar o'rtasidagi hamkorlikning dastlabki shakli. Bunda bolalar boshqalar bilan o'zaro aloqalari orqali o'rganadilar. Ko'pchilik o'yin orqali o'rganish nazariyasiga qarshi, chunki ular bolalar yangi bilimlarga ega emas deb o'ylashadi. Aslida o'yin bolalarning yoshligida dunyoni anglashni o'rganishning birinchi usuli hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning yoshligidagi tushunchalar bilan o'ynashi va o'zaro munosabati keyinchalik ijtimoiy va kognitiv o'zaro munosabatlarning farqlarini tushuntirishga yordam beradi. Qanday xulq-atvorni belgilangan harakatlar bilan bog'lashni o'rganayotganda bolalarni yanada qobiliyatli kelajakka etaklashi mumkin. Bolalar kattalarning o'zaro muomalasini tomosha qilar ekan, yuz ifodalaridan tortib, ovoz ohangigacha bo'lgan ozgina nuanslarini qabul qilishadi. Ular turli xil rollarni o'rganish, narsalar qanday ishlashini o'rganish, boshqalar bilan muloqot qilishni va ishlashni o'rganmoqdalar. Shunday qilib, bolalar dramatik o'yin, badiiy va ijtimoiy o'yinlar kabi mashg'ulotlar orqali samaraliroq o'rganadilar va ko'proq bilimlarga ega bo'ladilar. Bu atama odatda maktabgacha yoki chaqaloqlarni parvarish qilish dasturlariga taalluqlidir. Bir tarafdin miyyaning tadqiqoti, ikkinchi tomondan, bolalar psixologiyasining o'rganish natijasiga ko'ra, bola aqliy qobiliyatining rivojlanish kaliti- bu uning birinchi uch yilligida, ya'ni miyya hujayralarining shakillanishida olgan tajribasidir. Bolaga biror narsani majburlab singdirib bo'lmaydil, lekin bolalar juda qiziquvchan bo'lishadi, shuning uchun bolaga ta'lim berishda muhabbat uyg'otish, qiziqtirish kerak. Masalan bolaga biror narsa chizdirmoqchi bo'lsangiz aynan o'sha shkal va hajmda chizdira olmaysiz, bolaning o'z

kozi va tasavvuri bilan chizadi. Va biz buni pas baholaymiz chunki biz kirib qolgan qobiqqa bolani ham kiritmoqchimiz. Aslida yosh bolani imkoniyat va istedadidini chegaralab uning kelajagiga to'siq qo'yib qo'yamiz. Yo'q bolalar dunyoni biz tasovvurimizdek kurmaydi. Biz faqat tasviriy san'tga qiziqtirishimiz, to'g'ri yo'l ko'rsatishimiz mumkin qolgani bolaning ishi. Biz tasviriy san'tda ishlatayotgan qog'oz formati, ish qurollar, ishlatish texnikasi ketma-ketligi bu biz qo'ygan cheklov holos. Bu yosh ijodkor uchun hech qanday texnika kerak bo'lmas balki lekin tasviriy san'tga bo'lgan qiziqish bolani borliqni anglashga katta yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizkiy insonning qobiliyat va fe'l-atvori tug'ilganida belgilanmay, hayotning ma'lum davrida shakillanadi. Buni erta ta'imda sinab ko'rish ancha samarali ish hisoblanadi. Bizni cheklab qo'yadigan sababalardan biri istedad, gen tushunchasi aslida insonda shakillanadigan omil 1% iste'dod va 99% harakatddan iborat. Tasviriy san'tda erta ta'limni yo'lga qo'yish bola tasovvur doirasini kengaytirishga, borliqni anglash, rang tus va tabiatdagi perspektivani ko'rishga yordam beradi. Bu o'z navbatida Bolani aqliy salohiyatini oshiradi. Yevropa ta'lim tizimida tasviriy san't muhim fan sifatida bolalarga ko'proq dars soatlari ajratiladi, maktabgacha ta'lim tizimida esa bolalarga tasviriy san'tning professional turi o'rgatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Masaru Ibuka/uchdan kiyin kech/ Toshkent "Akadem nashr" 2019
2. <https://invento.uz/>
3. <http://www.marifat.uz/marifat/ruknlar/maktabgacha/>